

## EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI: GLOBAL TAHLIL VA MILLIY STRATEGIYALAR

 <https://doi.org/10.70728/tech.v3.i04.003>

*Abdualilova Oyzodaxon Almahammad qizi*  
*Agrobiznes va raqamli iqtisodiyot fakulteti*  
*Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi 4-95 gurux talabasi*  
[oyzodaabdualilova.2004@gmail.com](mailto:oyzodaabdualilova.2004@gmail.com)

**Annotatsiy:** Ushbu maqolada global ekologik muammolarning iqtisodiyotga ko'rsatayotgan bevosita va bilvosita ta'sirlari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida BMT, Jahon banki va xalqaro ilmiy tashkilotlarning so'nggi hisobotlariga asoslangan holda, atrof-muhit degradatsiyasining iqtisodiy o'sish, xalqaro savdo, turizm va aholi farovonligiga ta'siri miqdoriy jihatdan baholangan. Xususan, tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan mablag'lar uning buzilishiga sarflanayotgan investitsiyalarning atigi 3 foizini tashkil etishi, okean ekotizimlarining zararlanishi iqlim o'zgarishidan ko'riladigan iqtisodiy zararni deyarli ikki baravarga oshirishi, chiqindilarni noto'g'ri boshqarish esa ayrim mintaqalarda yillik 7 milliard dollardan ortiq zarar keltirishi aniqlangan. Shuningdek, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida amalga oshirayotgan islohotlari va ularning istiqbollari yoritilgan. Maqolada ekologik muammolarni bartaraf etmasdan turib, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish mumkin emasligi ilmiy asoslangan.

**Kalit so'zlar:** ekologik degradatsiya, yashil iqtisodiyot, iqlim o'zgarishi, uglerod emissiyasi, chiqindilarni boshqarish, Orol dengizi, barqaror rivojlanish, ekologik investitsiyalar, uglerod izi, dekarbonizatsiya.

### KIRISH

XXI asrda insoniyat duch kelayotgan eng muhim muammolardan biri – bu iqtisodiy o'sish va atrof-muhit muhofazasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdir. So'nggi ellik yil ichida jahon iqtisodiyoti misli ko'rilmagan darajada o'sdi, ammo bu o'sish tabiiy resurslarning haddan tashqari ekspluatatsiyasi, biologik xilma-xillikning kamayishi va iqlim o'zgarishi kabi salbiy oqibatlariga olib keldi. Ekologik muammolar endi sof tabiiy ofat sifatida emas, balki iqtisodiy tizimlarning barqarorligiga jiddiy tahdid soluvchi omil sifatida qaralmoqda.

Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi va chiqindilar muammosi davlat byudjetlariga, xususi sektor investitsiyalariga va aholi daromadlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, ekologik muammolarni bartaraf etmasdan turli, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkoniyati cheklanib qolmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti esa "tabiatni muhofaza qilishga sarflanayotgan har 1 dollarga qarshi 30 dollar zarar yetkazuvchi investitsiyalar to'g'ri

keladi”, deb ogohlantirmoqda . Ushbu maqolaning maqsadi – global ekologik muammolarning iqtisodiyotga ta’sirini tizimli tahlil qilish, mavjud iqtisodiy mexanizmlarning ekologik degradatsiyadagi rolini aniqlash va O’zbekiston misolida “yashil iqtisodiyot”ga o’tish strategiyalarini o’rganishdan iborat.

## **ASOSIY QISM**

### **1. Global ekologik-iqtisodiy nomutanosiblik**

Xalqaro moliya oqimlarining tahlili shuni ko’rsatadiki, hozirgi iqtisodiy tizim tabiatni muhofaza qilishdan ko’ra uni buzishni ko’proq rag’batlantiradi. BMTning 2026-yilgi “Tabiatni moliyalashtirish holati” hisobotiga ko’ra, 2023-yilda tabiatga zarar yetkazuvchi faoliyatga 7,3 trillion dollar yo’naltirilgan bo’lsa, tabiatga asoslangan yechimlarni qo’llab-quvvatlashga atigi 220 milliard dollar sarflangan . Bu shuni anglatadiki, har bir dollar tabiatni asrashga yo’naltirilganda, 30 dollar uni yo’q qilishga sarflanmoqda.

Ayniqsa, kommunal xizmatlar, sanoat, energetika va asosiy materiallar ishlab chiqarish sohalari eng katta zarar yetkazuvchi tarmoqlar hisoblanadi. Shuningdek, yoqilg’i-energetika kompleksi, qishloq xo’jaligi, suv xo’jaligi, transport va qurilish sohalari atrof-muhitga zararli subsidiyalar hisobiga faoliyat yuritmoqda .

### **2. Iqlim o’zgarishining iqtisodiy bahosi: okean omili**

Kaliforniya universiteti Scripps Okeanografiya instituti tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan so’nggi tadqiqotlar iqlim o’zgarishi iqtisodiy zararlarini baholashda muhim kashfiyot qildi. Ma’lum bo’lishicha, okeanlarning zararlanishi iqlim o’zgarishidan ko’riladigan iqtisodiy zararni deyarli ikki baravarga oshiradi .

Tadqiqotda birinchi marta uglerodning ijtimoiy bahosi (social cost of carbon) hisob-kitoblariga okeanlarga yetkazilgan zararlar kiritildi. Global marjon riflarning yo’qolishi, baliqchilik tizimining buzilishi va qirg’oq infratuzilmasining vayron bo’lishi yiliga taxminan 2 trillion dollarga baholanmoqda. Okean zararlarini hisobga olmaganda, har bir tonna karbon dioksid emissiyasining ijtimoiy bahosi 51 dollarni tashkil qilgan bo’lsa, okean zararlari qo’shilganda bu ko’rsatkich 97,20 dollarga ko’tariladi .

2024-yilda global CO2 emissiyasi 41,6 milliard tonnani tashkil etganini hisobga olsak, okean omilining kiritilishi iqlim iqtisodiyotini tubdan qayta ko’rib chiqishni talab qiladi. Tadqiqotchilarning prognozlariga ko’ra, 2100-yilga borib, faqatgina an’anaviy bozorlardagi yillik zarar 1,66 trillion dollarga yetadi .

### **3. Chiqindilar inqirozi va iqtisodiy yo’qotishlar**

Jahon bankining so’nggi hisobotiga ko’ra, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika (MENA) mintaqasi jiddiy chiqindilar inqirozi bilan duch kelmoqda. Mintaqada har yili 155 million tonna chiqindi hosil bo’ladi va bu ko’rsatkich 2050-yilga borib ikki baravarga oshishi kutilmoqda. Chiqindilarni noto’g’ri boshqarish natijasida atrof-muhitga yetkazilayotgan yillik zarar 7,2 milliard dollardan oshadi .

Mintaqada chiqindilarni yig’ish darajasi nisbatan yuqori bo’lishiga qaramay (GCC davlatlarida 95% atrofida), qayta ishlash ko’rsatkichlari past darajada qolmoqda – chiqindilarning 10% dan kam qayta ishlanadi va uchdan ikki qismi noto’g’ri

boshqariladi . Bu holat nafaqat atrof-muhit ifloslanishiga, balki sog'liqni saqlash va turizm sohalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xususan, O'rta yer dengizi plastik chiqindilar bilan eng ifloslangan dengizlardan biri hisoblanadi. Misol uchun, Misr yiliga 29 million tonna chiqindi ishlab chiqaradi va bu mintaqadagi eng yuqori ko'rsatkichdir. Qohira, Luksor va Giza piramidalari kabi asosiy turistik joylarda chiqindilarni noto'g'ri boshqarish turizmga jiddiy zarar yetkazmoqda .

#### 4. Tuproq eroziyasi va iqtisodiy zararlar

Yevropa Ittifoqida tuproq eroziyasi muammosi ham katta iqtisodiy yo'qotishlarga sabab bo'lmoqda. Yevropa Tuproq Ma'lumotlar Markazi (ESDAC) tadqiqotiga ko'ra, faqatgina suv eroziyasi natijasida Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniya suv omborlarida yiliga 135 million m<sup>3</sup> cho'kindi to'planadi va ularni tozalash qiymati 2,3 milliard yevrodan oshadi .

Agar barcha tuproq yo'qotish jarayonlari (jarliklar, ko'chkilar, kon qazish) hisobga olinsa, Yevropadagi 5000 ga yaqin yirik suv omborlarida cho'kindi to'planishi yiliga 1 milliard m<sup>3</sup> dan oshadi va uni tozalash xarajatlari 5-8 milliard yevroni tashkil etadi . Bu esa o'z navbatida energiya ishlab chiqarish, sug'orish tizimlari va suv ta'minoti xarajatlarining oshishiga olib keladi.

#### 5. G7 davlatlari tajribasi: iqtisodiy globallashtirish va ekologik degradatsiya

G7 davlatlarida (AQSh, Kanada, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya va Buyuk Britaniya) olib borilgan tadqiqotlar iqtisodiy globallashtirish va ekologik degradatsiya o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni ochib berdi. Ushbu davlatlar jahon energiyasining 23% iste'mol qiladi va global CO<sub>2</sub> emissiyasining 44% chiqaradi .

Tadqiqot natijalariga ko'ra, moliyaviy innovatsiyalar "ikki qirrali qilich" vazifasini o'tamoqda – bir tomondan, ular yashil texnologiyalarni moliyalashtirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, uglerod intensiv global ta'minot zanjirlari orqali ekologik degradatsiyani kuchaytirmoqda . Shuningdek, tadqiqotchilar "ajralish kechikishi" (decoupling lag) hodisasini aniqladilar – ya'ni sanoat faoliyati ko'lamining o'sishi ekologik texnologiyalar rivojidan ustun kelmoqda.

Qizig'i shundaki, tadqiqot iqtisodiy o'sish intensivligining ekologik degradatsiyani kamaytirish potentsialini ham aniqladi – bu G7 davlatlari uglerod samarador ishlab chiqarish usullariga o'tayotganidan dalolat beradi .

#### 6. Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tizimining ekologik izi

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) va Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotining (OECD) 2025-2034 yillarga mo'ljallangan qo'shma hisobotiga ko'ra, go'sht, sut mahsulotlari va baliqqa global talab o'sishda davom etadi . Ayniqsa, o'rta daromadli mamlakatlarda daromadlar o'sishi va urbanizatsiya hisobiga hayvonot mahsulotlari iste'moli 24% ga oshishi kutilmoqda.

2034-yilga borib mol go'shti, cho'chqa go'shti, parranda go'shti, baliq, sut va boshqa hayvonot mahsulotlarining jon boshiga global iste'moli 6% ga o'sadi. Bu talabni

qondirish uchun global qishloq xo'jaligi va baliq ishlab chiqarishi 14% ga, go'sht, sut va tuxum ishlab chiqarish 17% ga o'sishi kerak .

Biroq, bu o'sish ekologik jihatdan qimmatga tushadi – emissiya intensivligidagi yaxshilanishlarga qaramay, qishloq xo'jaligidan to'g'ridan-to'g'ri issiqxona gazlari emissiyasi 2034-yilga borib 6% ga oshadi . Bu esa iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda qishloq xo'jaligi sektorini transformatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

#### 7. O'zbekiston tajribasi: “yashil iqtisodiyot” sari islohotlar

O'zbekiston Respublikasi ham global ekologik muammolarning salbiy ta'sirini kamaytirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida “O'zbekiston-2030” strategiyasi doirasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Xususan, 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e'lon qilinib, quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan :

Energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya: 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jami energiya ishlab chiqarishdagi ulushini 54% ga yetkazish, umumiy quvvati 4,5 GVt bo'lgan yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish, quvvati 785 MVt quyosh panellari va 225 MVt gidroelektr stansiyalarini qurish rejalashtirilgan .

Issiqxona gazlarini kamaytirish: Parij bitimi talablaridan kelib chiqib, O'zbekistonning uglerod neytralligiga erishish uzoq muddatli strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan hajmini 2010-yil darajasiga nisbatan 35% ga qisqartirish ko'zda tutilgan .

Suv resurslarini tejash: Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini suv tejoychi texnologiyalar bilan ta'minlash darajasini 100% ga yetkazish, suv ishlatish samaradorligini 25% ga oshirish, nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish hisobiga elektr energiyasi iste'molini keskin kamaytirish rejalashtirilgan .

Yashil hududlarni kengaytirish: Shaharlar hududining kamida 30% ini yashil maydonlar tashkil etishini ta'minlash, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yashil maydonlar hajmini 37,5% ga oshirish nazarda tutilgan .

Korporativ mas'uliyat: “O'zbekneftgaz”, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati”, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati”, “Uzbekistan Airports”, “Uzbekistan Airways” kabi yirik strategik korxonalarda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish va xalqaro ESG reytinglarini olish rejalashtirilgan .

#### 8. Ekologik muammolarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari

Ekologik muammolar nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga, balki aholining kundalik hayoti va salomatligiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Orol dengizi havzasi misolida ekologik halokatning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari yaqqol ko'rinadi – suv resurslarining tanqisligi, yerlarining sho'rlanishi, aholi salomatligining yomonlashuvi va hududlarning qashshoqlashuvi kabi muammolar mintaqa iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Okeanlarning zararlanishi esa ayniqsa orol davlatlari va qirg'oqbo'yi hududlarida yashovchi aholi uchun og'ir oqibatlarga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqlim

o'zgarishiga eng kam mas'ul bo'lgan va unga moslashish imkoniyati eng past bo'lgan mamlakatlar eng katta zarar ko'rmoqda . Bu esa ekologik muammolarni hal qilishda global hamkorlik va adolatli moliyalashtirish mexanizmlarining muhimligini ko'rsatadi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekologik muammolar va iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlik tobora mustahkamlanib bormoqda. Atrof-muhit degradatsiyasi nafaqat tabiiy ofatlar ko'rinishida, balki iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi, davlat byudjeti xarajatlarining oshishi, aholi salomatligining yomonlashuvi va turizm kabi muhim tarmoqlarning zaiflashuvi orqali ham namoyon bo'lmoqda.

Global miqyosda tabiatni muhofaza qilish va uni buzish o'rtasidagi 1:30 nisbatdagi moliyaviy nomutanosiblikni bartaraf etish, zararli subsidiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish va "tabiat-musbat" investitsiyalarni kengaytirish zarur. Okeanlarning iqtisodiy bahosini qayta ko'rib chiqish, uglerod emissiyasining to'liq qiymatini hisoblash va bu ma'lumotlarni iqtisodiy qarorlar qabul qilishda majburiy tarzda qo'llash lozim.

O'zbekiston misolida ko'rinadiki, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish nafaqat ekologik muammolarni hal qilish, balki iqtisodiy o'sishning yangi modelini shakllantirish vositasi sifatida qaralmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish va korxonalarining ekologik mas'uliyatini kuchaytirish orqali O'zbekiston 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini 200 milliard dollarga yetkazish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni rejalashtirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ekologik muammolarni iqtisodiy rivojlanishdan ajralgan holda hal qilib bo'lmaydi. Barqaror kelajak faqatgina iqtisodiy va ekologik maqsadlarni uyg'unlashtirgan, "yashil o'sish" tamoyillariga asoslangan yaxlit yondashuv orqali ta'minlanishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. World Bank.(2026).“Waste Management in the Middle East and North Africa”. Travel And Tour World.
2. O'zbekiston Respublikasi Senati. (2026). “Strategiyaning qishloq va suv xo'jaligi hamda ekologiya sohalaridagi ustuvor yo'nalishlari muhokama qilindi”. Xalq so'zi.
3. Near East University.(2026).“Economic Globalization and Environmental Technology: Implications for Environmental Degradation in G7 Countries”. Sustainability, 18(4), 1819.
4. United Nations Environment Programme.(2026).“State of Finance for Nature 2026”. UN Geneva.
5. Scripps Institution of Oceanography.(2026).“Ocean damage nearly doubles the cost of climate change”. PreventionWeb.
6. FAO & OECD. (2025). “Kənd təsərrüfatında 2025-2034-cü illər üçün proqnoz”. Azerbaijan News.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026). "On the State Program for the Implementation of the Uzbekistan –2030' Strategy in the Year of Environmental Protection and the 'Green Economy'". Gov.uz.

8. Taştan, B., & Terziođlu, K. (2021). "Environmental Degradation: Monetary Transmission Mechanism and CO2 Emission". International Conference of Eurasian Economies.

9. European Soil Data Centre (ESDAC). (2026). "Understanding the cost of soil erosion: An assessment of the sediment removal costs from the reservoirs of the European Union". Joint Research Centre.